O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 12 - fevral 86-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

“Farg‘ona suv ta’minoti” AJ Qo‘qon shahar filiali tasarrufidagi suv inshootlarini hamda ular joylashgan foydalanilmay bo‘sh turgan yer maydonlaridan kelgusida samarali foydalanish tashkil etish maqsadida Qo‘qon shahar hokimligi balansiga o‘tkazish to‘g‘risida

“Farg‘ona suv ta’minoti” AJning 2024-yil 31-yanvardagi 01-02/94-sonli jamiyatning Qo‘qon shahar filiali tasarrufidagi suv inshootlarini hamda ular joylashgan foydalanilmay bo‘sh turgan yer maydonlarini Qo‘qon shahar hokimligi balansiga o‘tkazish to‘g‘risidagi rozilik xati hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 9- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. “Farg‘ona suv ta’minoti” AJning 2024-yil 31-yanvardagi 01-02/94-sonli jamiyatning Qo‘qon shahar filiali tasarrufidagi suv inshootlarini hamda ular joylashgan foydalanilmay bo‘sh turgan yer maydonlarini Qo‘qon shahar hokimligi balansiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarilishi bo‘yicha murojaati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Farg‘ona suv ta’minoti” AJning Qo‘qon shahar filiali tasarrufidagi Qo‘qon shahar, “Galabaqqolik” MFY, Hurramlik ko‘chasida joylashgan 20-sonli suv inshootining 1513,88 m2, “Tolzor” MFY, Islom Karimov nomli ko‘chasida joylashgan 9-sonli suv inshootining 1907,43 m2, “Ustabozor” MFY, Ustabozor ko‘chasida joylashgan 15-sonli suv inshootining 128,58 m2, Ustabozor ko‘chasida joylashgan 31-sonli suv inshootining 1233,4 m2, “Yangiobod” MFY, Mahram ko‘chasida joylashgan 19-sonli suv inshootining 559,4 m2 yer maydonalari bilan birga samarali foydalanishni tashkil ekish maqsadida operativ boshqaruv huquqi bilan Qo‘qon shahar hokimligi balansiga o‘tkazib berilsin.

3. Qo‘qon shahar hokimligi (Usmonov), “Farg‘ona suv ta’minoti” AJ

(Yuldashev), jamiyatning Qo‘qon shahar filiali tasarrufidagi suv inshootlarini hamda ular joylashgan foydalanilmay bo‘sh turgan yer maydonlarini Qo‘qon shahar hokimligi balansiga belgilangan tartibda topshirish-qabul qilish ishlarini amalga oshirsin.

4. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (Mashrapov) Qo‘qon shahar hokimligiga o‘tkazilayotgan mazkur obyektlarni bo‘yicha kadastr xujjatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta’minlasin.

5. Qo‘qon shahar hokimligi (Usmonov) “Farg‘ona suv ta’minoti” MCHJ Qo‘qon shahar filiali tasarrufidagi Qo‘qon shahar, “Galabaqqolik” MFY, Hurramlik ko‘chasida joylashgan 20-sonli suv inshootining 1513,88 m2, “Tolzor” MFY, Islom Karimov nomli ko‘chasida joylashgan 9-sonli suv inshootining 1907,43 m2, “Ustabozor” MFY, Ustabozor ko‘chasida joylashgan 15-sonli suv inshootining 128,58 m2, Ustabozor ko‘chasida joylashgan 31-sonli suv inshootining 1233,4 m2, “Yangiobod” MFY, Mahram ko‘chasida joylashgan 19-sonli suv inshootining 559,4 m2 yer maydonlari va obyektlardan samarali foydalanish yuzasidan taklif kiritsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**